



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK” VA “YOMONLIK”
KATEGORIYALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI
LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF THE CATEGORIES
OF “GOOD” AND “EVIL” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/FRTB3722

Xasanova Sohibjamol Soatmurod qizi
Toshkent davlat transport universiteti,
tayanch doktoranti
[*khasanovasohibjamol@gmail.com*](mailto:khasanovasohibjamol@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda maqollar asosida bu tushunchalarning milliy tafakkurdagi o'rni, axloqiy mazmuni va madaniy konnotatsiyalari ochib beriladi. Ingliz tilidagi “good/evil” va o'zbek tilidagi “yaxshilik/yomonlik” konseptlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiylik va farqlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: yaxshilik, yomonlik, konsept, lingvomadaniyat, kognitiv yondashuv, maqol, madaniyat.

Annotation. This article analyzes the linguocultural characteristics of the categories “good” and “evil” in English and Uzbek. Based on proverbs, it explores the moral content and cultural connotations of these concepts within national worldviews. The comparative study reveals both universal and culture-specific aspects of “good/evil” in the two languages.

Keywords: good, evil, concept, linguoculture, cognitive approach, proverb, culture.

Til inson tafakkurining mahsuli va madaniyatning eng muhim ko'rsatkichi sifatida xalqning dunyoni idrok etish tarzini, qadriyatlarini hamda axloqiy-me'yoriy qarashlarini aks ettiradi. Shu bois tildagi leksik birliklar, xususan, “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalari nafaqat semantik, balki lingvomadaniy jihatdan ham o'rganilishi lozim bo'lgan muhim birliklardandir. Har bir xalqning tili orqali ularning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy qadriyatlari, diniy hamda falsafiy dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida konseptual, kognitiv va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilib, ikki tildagi maqollar va hikmatli so'zlar misolida bu kategoriyalarning madaniy-axloqiy asoslari aniqlanadi. Shuningdek, G. Lakoff va M. Johnsonning metaforik konseptualizatsiya haqidagi nazariyasi, N. Arutyunova, V. Vorobyev, V. Alifirenko hamda A.E. Mamatovning lingvokulturologiya sohasidagi ilmiy qarashlari tadqiqot uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi.



Avvalombor, lingvomadaniyatshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ochib berishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlanib, tilni nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri va milliy madaniyatni aks ettiruvchi tizim sifatida talqin etishga asos soldi. Til orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ma'naviy tajribasi ifodalanadi.

Birinchi navbatda, ingliz kognitiv lingvistikasining vakillari — J. Lakoff va M. Johnsonning ishlari lingvomadaniyatshunoslikning g'oyaviy poydevorini mustahkamladi. Ularning mashhur “Metaphors We Live By” asarida til metaforik tafakkurning asosiy ko'rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Olimlar fikricha, inson dunyoni tilda metaforalar orqali idrok etadi, bu esa madaniyatning konseptual asoslarini ifodalaydi [J. Lakoff & M. Johnson, 1980: 9]. Masalan, “good” (yaxshilik) konsepti ingliz madaniyatida ko'pincha ijtimoiy tartib, mehnatsevarlik yoki maqsadga erishish bilan bog'lanadi: “Good job”, “Do good”, “Good deeds”. Bunda “yaxshilik” amaliy natija, ijtimoiy foyda va shaxsiy mas'uliyat bilan o'lchanadi. Bu jarayon, Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, madaniy konseptlarning metaforik xarakterini ko'rsatadi, chunki har bir xalq “yaxshi” va “yomon”ni o'z madaniy tajribasi asosida konseptualizatsiya qiladi [Lakoff&Jonson, 1990: 9].

Tilning madaniyat bilan bog'liqligi masalasi rus lingvistikasida ham chuqur tadqiq etilgan. N.D. Arutyunova o'zining “Язык и мир человека” asarida tilni inson dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq tizim sifatida ko'radi. Unga ko'ra, “til insonning ichki olamini, uning dunyoni his etish shaklini va qadriyatlar tizimini ifodalovchi vositadir.” Masalan, “yaxshilik” konsepti o'zbek tilida bag'rikenglik, saxovat va mehr-oqibat orqali ifodalanar ekan, bu xalqning ijtimoiy va diniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida esa good ko'proq shaxsiy yutuq va ijtimoiy me'yorlar bilan bog'lanadi. Bu farq Arutyunova ta'kidlagan “til orqali dunyoni idrok etish shakllari”ning milliy o'ziga xosligidan dalolat beradi [Arutyunova, 1999: 135].

V.V. Vorobyev esa lingvomadaniyatshunoslikni “til va madaniyatni yagona tizimda o'rganishga qaratilgan kompleks fan” sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, madaniyat til orqali “kodlanadi”, ya'ni har bir til xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti va qadriyatlar tizimini saqlovchi ramziy tizimdir [Vorobyev, 1997: 34]. Masalan, o'zbek tilidagi “non” so'zi faqatgina oziq-ovqatni emas, balki muqaddaslik, baraka va mehr-muruvvatni ifodalaydi. Ingliz tilidagi “bread” esa moddiy farovonlik yoki tirikchilik ramzi sifatida (earn one's bread) qo'llanadi. Shu tarzda Vorebyev til birliklari madaniyatni “kultural kodlar” orqali ifodalashini ko'rsatadi.

V.N.Aliferenko o'zining “Лингвокультурология” asarida lingvomadaniyatshunoslikni madaniyat kodlari va til birliklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qiluvchi fan deb talqin qiladi. Olim tilning nafaqat kommunikativ, balki kognitiv va madaniy vazifasini ham alohida ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, “til xalq



madaniyatini saqlovchi, uzatib beruvchi va qayta yaratuvchi ijtimoiy mexanizmdir” [Aliferenko, 2010: 9]. Shuning uchun har bir tildagi so‘zlar va frazeologizmlar o‘ziga xos madaniy qatlamga ega bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoni ko‘rish, baholash va his etish uslubi namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ham lingvomadaniyatshunoslik masalalariga katta e‘tibor berilgan. Jumladan, A.E. Mamatov tilni milliy madaniyatning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, “til xalq ruhining, uning dunyoni idrok etish tarzi va qadriyatlar tizimining aksidir” [Mamatov, 2018: 20]. A.E. Mamatovning tadqiqotlarida til orqali xalqning urf-odatlar, e‘tiqodlari, axloqiy me‘yorlari va madaniy tafakkuri o‘rganiladi. Masalan, “yomonlik” tushunchasi o‘zbek tili madaniyatida nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy baholash vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi: “yomon niyat”, “yomon gap”, “yomon ko‘z” kabi birikmalar xalqning axloqiy dunyoqarashini ifodalaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv yondashuv inson tafakkuridagi bilimlarning tildagi aksini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, til orqali inson ongida shakllanadigan konseptual tuzilmani tahlil etishga asoslanadi. Shu bois, “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalarini o‘rganishda lingvokognitiv va lingvomadaniy metodlarning qo‘llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar inson tafakkuri va madaniyatida shakllangan konseptlarning mazmuniy, semantik hamda assotsiativ xususiyatlarini chuqur yoritishga imkon beradi.

Kognitiv yondashuv doirasida konseptual tahlil usuli muhim o‘rin tutadi. Ushbu usul “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarining mazmuniy tuzilmasini, ularning yadro va periferiya qismlarini aniqlash imkonini beradi. Konseptlar tarkibida inson tafakkurida aks etgan ijtimoiy, axloqiy va hissiy tajribalarning tildagi ifodasi mujassam bo‘ladi. Shu jarayonda konseptlarning semantik maydoni, ularning metaforik, assotsiativ va baholovchi xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, “good” konsepti odatda nur, poklik, yordam, saxiylik kabi ijobiy semantik belgilar bilan ifodalansa, “evil” konsepti qorong‘ulik, zarar, nafrat, gunoh kabi salbiy semantik belgilar bilan tavsiflanadi.

Freym tahlili esa bu kategoriyalarni insonning tajriba va idrok jarayoni asosida shakllangan kognitiv qoliplar doirasida o‘rganishga imkon beradi. “Yaxshilik qilish”, “yomonlik qilish” kabi holatlar inson faoliyatining muayyan ssenariylari sifatida ko‘riladi. Bu jarayonlar orqali til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Assotsiativ eksperiment metodi esa respondentlarning “good” va “evil” so‘zlariga nisbatan hosil qilgan assotsiatsiyalarini o‘rganish orqali milliy ongda mazkur tushunchalarning qanday kognitiv modellarga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv turli millat vakillarining “yaxshilik” va “yomonlik”ni qanday tasavvur qilishini solishtirish imkonini beradi.

Lingvomadaniy yondashuv esa til birliklari orqali xalq madaniyatida aks etgan qadriyatlar tizimini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Til faqat aloqa vositasi emas, balki milliy ong va madaniyatning asosiy tashuvchisidir. Shu bois, “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari xalq og‘zaki ijodi, maqol va matallar, afsona va



rivoyatlarda qanday ifoda topgani lingvokulturologik tahlil orqali aniqlanadi. Bu jarayonda ularning milliy-madaniy mazmuni, xalq tafakkuridagi o‘rni va qadriyat tizimidagi ahamiyati yoritiladi. Semantik-stilistik tahlil orqali “yaxshilik” va “yomonlik”ni ifodalovchi so‘zlarning ma’no soyasi, konnotativ jihatlari hamda ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlari aniqlanadi. Bu yondashuv orqali ma’lum bo‘ladiki, har bir til o‘z madaniyatiga xos tarzda axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi va ularni baholashda milliy o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi o‘zbek va ingliz tillaridagi “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining umumiy va farqli jihatlari ochib beradi. Bu metod orqali har ikki xalqning madaniy va axloqiy qarashlari til orqali qanday ifodalanishi aniqlanadi. Shunday qilib, lingvokognitiv, lingvomadaniy, semantik-stilistik va qiyosiy yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining mazmuniy tuzilmasini, ularning milliy ong va madaniyatdagi o‘rnini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Til har bir xalqning ma’naviy dunyosini, axloqiy qadriyatlarini va madaniy tajribasini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Shu bois “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalari har bir millat tilida o‘ziga xos ma’no, obraz va qadriyat tizimi orqali ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki xalq dunyoqarashida yaxshilik ijobiy fazilat, samimiyat va halollik bilan bog‘liq bo‘lsa, yomonlik axloqiy og‘ish, adolatsizlik va zarar keltiruvchi kuch sifatida tasavvur qilinadi.

O‘zbek maqollarida “yaxshilik” konsepti asosan insoniylik, saxovat va halollik bilan bog‘liq ma’naviy qadriyat sifatida talqin etiladi. Masalan, “Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber” maqoli o‘zbek xalqining minnatdorlik va sadoqat tuyg‘ularini ifodalaydi. Bu yerda yaxshilik qilish — nafaqat yordam berish, balki insoniy munosabatlarda doimiy hurmatni saqlash degan ma’noni bildiradi. “Daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobondan topasan” maqolida esa yaxshilik qilishning mukofoti darhol emas, ammo muqarrar ekaniga ishora bor. Bu tildagi xalqona falsafa yaxshilikni ilohiy adolat bilan bog‘laydi. Yomonlikka doir maqollarda esa xalq tafakkurida axloqiy ogohlantirish va hayotiy tajriba mujassam. Masalan, “Birovga choh qazima, o‘zing tusharsan” yoki “Birovga kesak otsang, u senga tosh otadi” kabi maqollar insonni yomonlikdan tiyilishga, qilgan yomon ishi o‘ziga qaytishini anglashga chorlaydi. “Yomon odamga o‘lim”, “Yomonga — balo” kabi ifodalarda esa xalq og‘zaki ijodida yomonlikning qat’iy jazolanishi g‘oyasi ustuvor. Bu hol o‘zbek madaniyatida adolat va axloqiy muvozanatning muhim qadriyat sifatida qaralishini ko‘rsatadi.

Ingliz tili maqollarida esa “good” konsepti ko‘proq individual axloq va ijtimoiy o‘zaro yordam bilan bog‘liqdir. Masalan, “A friend in need is a friend indeed” maqoli haqiqiy do‘stlikni sinovda namoyon bo‘lishi orqali o‘lchaydi. Bu xalqona hikmat yaxshilikni do‘stlik, sadoqat va qo‘llab-quvvatlash qadriyatlari bilan bog‘laydi. “Charity begins at home” maqolida esa yaxshilik qilish avvalo o‘z atrofidan, oiladan boshlanishi kerakligi ta’kidlanadi — bu ingliz madaniyatidagi individual mas’uliyat va amaliy axloqiylikni ifodalaydi. Shuningdek, “Better is the



little that the righteous has than the abundance of many wicked” maqoli orqali ingliz xalqining axloqiy tafakkurida halollik moddiy boylikdan ustun qo‘yiladi. Bu yerdagi semantik qarama-qarshilik (righteous – wicked) yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi diniy-axloqiy asosni yoritadi. Xuddi shuningdek, “The way of the wicked is as darkness” yoki “Woe to those who call evil good, and good evil” kabi maqollar yomonlikning zulmat, jaholat va ma’naviy halokat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, har ikkala tilda “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlari nafaqat axloqiy baho, balki xalqning mentaliteti, diniy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlarining in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek maqollarida yaxshilik ko‘proq ijtimoiy birdamlik, minnatdorlik va ilohiy adolat bilan bog‘lansa, ingliz maqollarida u shaxsiy mas’uliyat, do‘stlik va insoniy fazilatlar orqali talqin etiladi. Yomonlik esa har ikki madaniyatda ham adolatga zid, ijtimoiy ziddiyat va ma’naviy inqiroz bilan ifodalanadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalari har ikki xalq tilida ham universal axloqiy qadriyatlar tizimini ifodalaydi, biroq ularning mazmuni milliy madaniyat va diniy-falsafiy qarashlarga ko‘ra farqlanadi. Ingliz tilidagi “good” va “evil” konseptlari ko‘proq nasroniylik an‘analari, axloqiy dualizm va individual mas’uliyat tamoyillariga tayanadi. O‘zbek tilida esa “yaxshilik” ko‘proq jamoaviylik, mehr-shafqat, sadoqat va odob bilan, “yomonlik” esa noshukurlik, adovat va beandishalik bilan bog‘lanadi. Maqollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz xalq maqollarida “good” tushunchasi ko‘proq shaxsiy xulq va halollikka urg‘u berar ekan (“A friend in need is a friend indeed”, “Charity begins at home”), o‘zbek maqollarida esa “yaxshilik” ijtimoiy burch va ezgulikni davom ettirish bilan talqin etiladi (“Bir kishi ariq qazar, ming kishi suv ichar”, “Daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobondan topasan”). Shuningdek, “yomonlik” konsepti inglizlarda ko‘proq diniy-axloqiy ogohlantirish, gunoh va jazoga yo‘naltirilgan bo‘lsa (“The way of the wicked is as darkness”), o‘zbek maqollarida u ijtimoiy axloqni buzuvchi, jamiyatda tartibsizlik keltiruvchi xatti-harakat sifatida baholanadi (“Yomonga — balo”, “Birovga choh qazima, o‘zing tusharsan”).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliferenko N.F. *Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка.* – М.: Флинта–Наука, 2010.
2. Arutyunova N.D. *Культурные концепты.* – М., 1991.
3. Arutyunova N.D. *Язык и мир человека.* – М.: Языки русской культуры, 1999.
4. Vorebyev V.V. *Лингвокультурология (Теория и методы).* – М., 1997.
5. Lakoff J. Jonson M. *Метафоры, которыми мы живем* (Перевод Н.В. Перцова) // *Теория метафоры.* – М.: Прогресс, 1990
6. Safarov, Sh. *Kognitiv tilshunoslik.* – Jizzax, 2006.
7. Teliya V.N. *Основные постулаты лингвокультурологии. // Филология и культура: Материалы XI международной конференции.* – Тамбов, 1999.
8. Mamatov, A. E. *Lingvomadaniyatshunoslik asoslari.* – T.: Universitet, 2018.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774